


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori


K.T.Urinbayev

« 27 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi




« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi




« 17 » 06 2025-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishlari uchun

Toshkent – 2025-yil

Mazkur dastur va baholash mezonlari O'zbekiston davlat konservatoriyasi O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2025 - yil 30 may dagi 10 - sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar:

O'Abdullayev – MESI “Estrada cholg'ularida ijrochilik” kafedrasi mudiri, dotsent

A.Bagamanova - MESI “Estrada cholg'u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b

Taqrizchilar:

A.Nazaryan – MESI “Estrada cholg'ularida ijrochilik” kafedrasi dotsenti

X.Rahimov – O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi o'rinbosari, professor

Kirish

Mazkur dastur va baholash mezonlari quyidagi:

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "Ixtisoslik"dan 1-ijodiy imtihon dasturi va 2-ijodiy fan "Musika adabiyoti va nazariyasi"dan abituriyentlarning amaliy – nazariy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar ijrosi va boshqa topshiriqlar borasida amaliy ishlarni bajaradilar, Musika adabiyoti bo'yicha kollokvium suhbatidan o'tadilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezonlar asosida baholanadi.

"Ixtisoslik"dan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'zlashtirishlaridan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. Tanlagan yo'nalishi bo'yicha abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar

tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida "Ixtitsoslik"dan ijro dasturi (o'zbek va jahon musiqasidan namuna sifatida taniqli qo'shiqlar)ni taqdim etishi talab etiladi.

"Musiqqa adabiyoti va nazariyasi" bo'yicha "Garmoniya" qismidan klassik raqamli davriya, shuningdek estrada-jaz uslubidagi harfli-raqamli davriyani so'ralgan tonallikda fortepianoda cholishi (10 daqiqagacha) hamda 10 daqiqagacha vaqt mobaynida Musiqqa adabiyotidan kollokvium suhbatidan o'tishi lozim.

1-fan

"Ixtitsoslik"dan ijro dasturi

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo'rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha

artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikaturani to'g'ri qo'llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Ijro dasturi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

DAMLI CHOLG'ULAR (saksafon, trombon, truba)

1. Tayyorlangan 5ta etyuddan biri
2. Fortepiano jo'rligida sonata yoki kontsertning 1 yoki 2 qismi
3. 2 ta estrada yoki jaz kuylari
4. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

Izoh: Truba cholg'usi uchun "do", "mi bemol", "lya" kronalarida transport qilishni bilish.

ZARBLI CHOLG'ULAR

a) Vibrafon va ksilofon:

- major va minor gammalari, arpedjio, etyud.
- fortepiano jo'rligida syuita, kontsertning 1 – 2 qismi, yoki 2 ta virtuoza kuy.
- 1 yoki 2 ta estrada yoki jaz kuyi.

b) Urma cholg'ular jamlamasi (udarnaya ustanovka)

- fortepiano jo'rligida 1 ta estrada yoki jaz kuyi.
- asosiy texnik elementlar (rudimentlar)
- fortepiano jurligida jaz va rok – musiqaning turli yo'nalishlarida yozilgan ritmik kombinatsiyalarni notaga qarab o'qish ("swing", "bit " va boshqalar)

FORTEPIANO

1. Polifonik asar.
2. Virtuoza etyud.
3. Yirik shakldagi asar.
4. 1 yoki 2 ta estrada - jaz kuyi.
5. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

GITARA

1. Akustik gitarada 2 ta etyud.
2. Sonata, kontsertning 1 – 2 qismi yoki 2 ta virtuoza kuy.
3. 1 – 2 ta estrada yoki jaz kuyi
4. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

BAS GITARA

1. Virtuoz etyud.
2. Sonata, kontsertning 1 –2 qismi yoki 2 ta virtuoz kuy.
3. 1-2 estrada yoki jaz kuyi.
4. Major va minor gamma va arpedjio (2-3 oktava diapazonida)
5. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

SKRIPKA, ALT

1. Virtuoz etyud.
2. Yirik shakldagi asar.
3. 1 yoki 2 ta estrada - jaz kuyi.
4. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

VIOLONCHEL, KONTRABAS

1. Virtuoz etyud.
2. Yirik shakldagi asar.
3. 1 yoki 2 ta estrada - jaz kuyi.
4. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

FLEYTA, GOBOY

1. Tayyorlangan 5ta etyuddan biri
2. Fortepiano jo'rligida sonata yoki kontsertning 1 yoki 2 qismi
3. 2 ta estrada yoki jaz kuylari
4. Komissiya xohishiga qarab gammalarning barcha turi - D 7, Um VII 7.

Ijodiy imtihonda abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Cholg'uda ijro dasturi –

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to'g'riligi	10,0 ballgacha
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	10,0 ballgacha
3.	Applikaturaning qo'llanishi	10,0 ballgacha
4.	Sahna madaniyati	10,0 ballgacha
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	10,0 ballgacha
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	10,0 ballgacha
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	10,0 ballgacha
8.	Intonatsiya sofligi	10,0 ballgacha
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	10,0 ballgacha
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi	3,0 ballgacha

“Ixtisoslik”dan ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **93,0 ball**

2-fan

“Musika adabiyoti va nazariyasi”

a) “Garmoniya”

Sinovlarning asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Garmoniya”dan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iboratdir.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- klassik va jaz garmoniyasining nazariy qonuniyatlarini bilish;
- klassik raqamli davriya, shuningdek, estrada-jaz uslubidagi harfli-raqamli davriyani so'ralgan tonallikda fortepianoda cholishi, og'zaki savollarga javob berishi orqali amaliy ko'nikmalarni ko'rsata olish.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent “Garmoniya”dan to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, garmoniya qonuniyatlarni yechimini fortepianoda ko'rsatib berish ko'nikmalarini namoyish qilishi lozim.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Klassik raqamli davriya, shuningdek estrada-jaz uslubidagi harfli-raqamli davriyani so'ralgan tonallikda fortepianoda ijro etish;
2. Og'zaki savollarga javob berish.

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Klassik raqamli davriya, shuningdek estrada-jaz uslubidagi harfli-raqamli davriyani so'ralgan tonallikda fortepianoda ijro etish.	25 ballgacha
2.	Og'zaki savollarga to'g'ri javob berish.	8 ballgacha
Jami		33,0

“Garmoniya” uchun qo'yiladigan maksimal ball – 33, 0 ball.

b) “Musiqqa adabiyoti”

Kollokvium tarzidagi suhbatdan abituriyentning jahon, rus, o'zbek musiqasi tarixiga oid savollarga javob berishi, topshirgan yo'nalishi tarixi haqida bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Jahon musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
2.	Rus musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
3.	O'zbek musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
4.	Estrada-jaz musiqasi tarixidan savollarga javob	9,0 ballgacha
Jami		30,0

“Musiqqa adabiyoti”dan to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – 30,0 ball

“Musiqqa adabiyoti va nazariyasi” uchun qo'yiladigan maksimal ball – 63,0 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

- 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (saksafon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (trombon)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (truba)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (gitara bas)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (zarbli cholg'ular)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fortepiano)
- 60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (skripka, alt)

60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (violonchel, kontrabas)
60211500 - Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari (fleyta, goboy)

ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estra san'ati instituti binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari shart. Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.